


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA
CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH QO'MITASI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

QORAMOLLARNING ICHAK SESTODOZLARINI DAVOLASH VA OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI BO'YICHA

TAVSIYANOMA




**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA
CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISH QO‘MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**



**QORAMOLLARNING ICHAK SESTODOZLARINI DAVOLASH VA
OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI BO‘YICHA**

TAVSIYANOMA



SAMARQAND 2026

**Ushbu tavsiyanoma Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti b.f.d. professor
X.B. Yunusov., v.f.d. professor v.b. T.I. Taylakov mustaqil
izlanuvchisi Sh.X.Muxammadiyevlar tomonidan tayyorlangan.**

Tavsiyanomada O'zbekiston sharoitda qoramollar ichak sestodozlarining bioekologik xususiyatlari, kasallikning epizootologik holatiga qarshi kurashish va so'nggi yillarda olingan ilmiy tadqiqotlar natijalari hamda adabiyot ma'lumotlari ham qisman kiritilgan.

Maskur tavsiyanoma veterinariya amaliyoti mutaxassislari, talabalar, magistrlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar uchun mo'ljallangan.

Tavsiyanoma Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Kengashida muhokama qilingan (Bayonnoma 10-son 2026 yil 03 iyun) va chop etishga tavsiya qilingan.

Taqrizchilar:

- | | |
|---------------------|---|
| A.S.Daminov | Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti,
v.f.d., professori |
| N.U.Karimova | Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti,
Protozoologiyasi
laboratoriyasi v.f.f.d. (PhD) katta ilmiy xodim |

Tavsiyanoma O'zbekiston respublikasi veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi tomonidan (Bayonnoma № 7/1 son 12.06.2026 y) tasdiqlangan va chop etishga ruxsat etilgan.

KIRISH

Bugungi kunda dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ekologik va antropogen omillar ta'sirida qoramollar orasida ayrim parazitlar kasalliklar jumladan, anoplotesofyatozlarning keng tarqalishi natijasida qoramollar mahsuldorligining keskin pasayishi, o'sishdan qolishi, ayrimlarini majburiy so'yilishi yoki nobud bo'lishi evaziga katta iqtisodiy zarar ko'rsatmoqda. Ko'pchilik mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham gelmintozlar keng tarqalgan bo'lib, ular ta'sirida chorva mollarning nobud bo'lishi va mahsuldorligining keskin kamayishi kuzatilmoqda.

Qoramollar monieziozidan keladigan zarar 3 oy davomida kasallangan hayvon tana massasining, har bir hayvon hisobiga o'rtacha 11,34 kg ni tashkil etgan.

Shu sababli ushbu parazitlar kasalliklarning epizootologiyasi, kechish xususiyatlari, klinik belgilari va organizmda kechadigan patologoanatomik o'zgarishlarini o'rganish asosida diagnostika qilish hamda oldini olish usullarini ishlab chiqish muhim dolzarb vazifa hisoblanadi.

Dunyo miqyosida keng tarqalgan qoramollarning asosiy parazitlar va invazion kasalliklari va ularning epizootologik holatini tezkor aniqlash, erta tashxis qo'yish, davolash va oldini olish tadbirlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Xususan Respublikamiz sharoitida hayvonlarning asosiy sestodozlaridan hisoblangan qoramollar monieziozini davolash va oldini olishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, kasallangan hayvonlar organizmda kechadigan morfologik, biokimyoviy va immunologik ko'rsatkichlarni tahlil qilish dolzarb ilmiy – amaliy muammo hisoblanadi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish borasida keng qamrovli chora- tadbirlar amalga oshirildi. Bunda chorva mollari bosh soni va mahsuldorligini ko'paytirish, shuningdek hayvonlarning turli xil zooanoz, yuqumli, yuqumsiz va

invazion kasalliklarini oldini olish va tizimli tadbirlarni yo‘lga qo‘yishga erishildi. Shuning bilan bir qatorda Respublikamizning turli mintaqalarida qoramollarning sestodozlari, jumladan, qoramollar monieziozini, tarqalish darajasi ularga aniq tashxis qo‘yish, kasallangan hayvonlarni davolashga hanuzgacha yetarli e‘tibor bermasdan kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining «Veterinariya to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 8- fevraldagi PQ - 120 –son “O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo‘yicha 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror mazkur tavsiyanomadagi tadqiqoti va hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan, qoramolchilikni rivojlantirish bo‘yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi. Tavsiyanomadagi ma’lumotlar fermer, davlat tashkilotlari uchun qo‘llanmasa vazifasini bajarishi va shuningdek, sohaning nazariy, amaliy jihatlarini boyitishi kutilmoqda.


O‘zbekiston sharoitida yirik va mayda shoxli hayvonlar orasida ichak sestodozlari – moniyezioz, tizaniyezioz, avitellinozlar va ularning qo‘zg‘atuvchilarining tarqalish darajasi, ularni diagnostika qilish, davolash masalalari 1975 yildan beri o‘rganilmasdan kelinmoqda. Faunistik tadqiqotlar bo‘yicha 1974 yilgacha qo‘y, echki va qoramollarda 3 tur moniyezioz qo‘zg‘atuvchilari – Moniezia expansa (Rudolphi, 1810), Moniezia benedeni (Moniez, 1879), Moniezia autumnalia Kuznetsov, 1967, bir tur tizaniyezioz qo‘zg‘atuvchisi – Thysaniezia giardi (Moniez, 1879), bir tur avitellinoz qo‘zg‘atuvchisi – Avitellina centripunstata (Rivolta, 1874) ni uchrashi qayd qilingan.

Bizlarning olib borgan so‘nggi yillardagi tadqiqotlarimiz, qoramollar orasida nafaqat moniyeziozni, balki tizaniyeziozni ham birmuncha keng tarqalganligini, ular oqibatida o‘lim holatlari kuzatilishini ko‘rsatmoqda. Bularning barchasi ushbu kasalliklarni

nafaqat qo'ylar, balki echki va qoramollar orasida mukammal o'rganishni taqoza etdi.

Qoramollar ichak sestodoz haqida umuniy ma'lumot. Sestodlar – Cestodes. Sestodlar sinfi 3000 dan ortiq turni o'z ichiga olib, ular ham to'la parazitlikka moslashgan. Voyaga etgan davrda uzun lentasimon shaklda bo'lib, odamlar va umurtqali hayvonlarning ingichka ichagida yashaydi va turli sestadozlar nomi bilan ma'lum bo'lgan kasalliklarni chaqiradi.

Sistematikasi. Qoramollarning ichak sestodozlarining qo'zg'atuvchilari yassi chuvalchanglar – Plathelminthes Schneider. 1873 tipining Cestoda Rudolphi, 1808 sinfiga, ushbu sinfningsa Cyclophyllidea Beneden in Braun, 1900 turkumiga kiradi. Bu turkum turlar soni jihatidan eng yirik turkum bo'lib, u bir necha kenja turkumlarni o'z ichiga oladi. Ularga Anoplocephalata Skrjabin, 1933, Hymenolepidata Skrjabin, 1940, Mesocestoidata Skrjabin, 1940. Taeniata Skrjabin et Schulz, 1937 Davaieniata kenja turkumlari misol



Skoleksi, o'rta bo'g'in va
etilgan bo'g'in

bo'la oladi. Qoramollarning va boshqa kavshovchi juft tuyoqli hayvonlarning barcha voyaga yetgan ichak sestodlari birinchi kenja turkum vakillari bo'lib hisoblanadi, ular chaqiradigan guruh kasalliklari esa Anoplotsefalyatozlar deb yuritiladi. Barcha anoplotsefalyatlar Anoplocephalata kenja turkumining 2 ta oilasiga kiritilgan. Ulardan biri Anoplocephalidae Chlodkowsky, 1902 oilasi bo'lib, 1. Anoplocephaliidae oilasining Moniezia avlodiga karashli Moniezia expansa, Moniezia benedeni, Moniezia autumnalia turlari. 2. Avitellinidaye- oilasi, u esa quyidagi avlod va turlarga bulinadi: Thysaniyezia

avlodining, T.giardi turi, Avitellina avlodining A.centripunctata turi va Stilesia avlodining S.globipunctata qo'zg'atuvchisi.

Qo'zg'atuvchilarning anatomo-morfologiyasi. Sestodoz qo'zg'atuvchilari tanasi yassi va tasmasimon bo'lib, skoleks (boshcha), bo'yin va bo'g'inlardan tashkil topgan. Ular 60 sm dan 10 m gacha va undan ham uzun bo'lishi mumkin. Skoleksi xo'yin ichagiga yopishib turish uchun so'rg'ichalar yoki botriyalar bo'ladi. Bo'yin qismi o'sish zonasi hisoblanadi.

Sestodlarning ovqat hazm qilish tizimi bo'lmaydi, ular oziq-ovqatni butun tanasi orqali shimib oladi. Jinsiy voyaga yetganlari sestod ichakda, lichinkasi esa oribatid kanalarida parazitlik qiladi. Tanasi kutikula bilan qoplangan bo'lib ostida, muskul tolalari joylashgan. Asab va ekskretor tizimlari yaxshi rivojlangan.

Sestodlarning organizmi germafrodit bo'lib, har bir bo'g'inda erkak va urg'ochi jinsiy organlar mavjud. Yetilgan bo'g'inlarda tuxum bilan to'lgan bachadon shakllanadi va ular tezak bilan tashqi muhitga chiqadi. Tuxumlari yumaloq oval yoki boshqa shaklda bo'lib, ichida ilmoqli onkosfera joylashadi.

Moniyeziyalar boshqa ichaklarining sestodlaridan bo'yinchaning qisqaligi, bo'g'in shakli va bachadonida noksimon apparatli onkosferali tuxumlarning hujayralari bilan farq qiladi

Moniyeziyalar boshqa ichak sestodlari tizaniyezioz, avitellinoz, stilezioz qo'zg'atuvchilaridan bo'yinchasining qisqaligi, tanasining bo'g'inlanishi, bo'g'inlarning hajmi, shakli va so'nggi yetilgan bo'g'inlaridagi yopiq bachadonida ko'p sonli noksimon apparatli onkosferali tuxumlarning bo'lishi bilan keskin ajralib turadi.

O'zbekiston sharoitida qo'y, echki va qoramollarda topilgan uch turga oid moniyeziyalarning parazitlik qilishi aniqlangan bo'lsada, ularning bir-biridan ajratuvchi anatomo-morfologik xususiyatlariga ta'rif berilmagan.

Bizlar o'z tadqiqotlarimiz va adabiyot ma'lumotlariga ko'ra ba'zi ichak sestodozlarning morfologik xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

M.expansa eng yirik sestodlardan hisoblanadi. Tanasining uzunligi 6-10 m ga yetadi, oq, sutsimon rangli. Strobiladagi bo'g'inlar qalin va mustahkam tuzilgan. Skoleksi kichik hajmga ega, bo'yi 0,5-0,7 mm, eni 0,7-1,0 mm atrofida, so'rg'ichlari yumaloq yoki oval shaklga ega, diametri 0,30-0,4 mm. Bo'yincha qismi juda qisqa, 3-5-10 mm, skoleksga nisbatan ensiz. Undan shakllanayotgan dastlabki bo'g'inlar mikroskop ostida seziladi, ular eniga ko'proq, bo'yiga esa sust, ammo bir tekisda o'saboshlaydi. Dastlab yetilgan bo'g'inlarning eni 6-8 mm, bo'yi 1 mm atrofida, keyinchalik ular eniga yanada o'saboshlaydi va 14-16 mm ni, ayrim holatlarda 18 mm ni tashkil etadi.

Yetilgan bo'g'inlar, ko'pchilik holda bittadan, ayrim holatda 2-3 tadan ichakda uziladi va tezak bilan tashqi muhitga tushadi. Hayvon tezagida parazit bo'g'inlari va ulardagi tarmoqlangan yopiq bachadonning mexanik ta'sir ostida buzilishi natijasida undan tuxumlar ajraladi. *M.expansa* ning tuxumlari, ko'pincha uch qirrali, diametri 0,05-0,06 mm ga teng, ularda olti ilmoqchali onkosfera mavjud, bu lichinka noksimon apparatning kengaygan qismida joylashgan. Tuxumlar tashqi tomondan bir necha qavatdan tashkil topgan qobiqlar bilan o'ralgan. Ularning ichi mayda donador massa bilan to'ldirilgan. Uzoq vaqt saqlansa bunday massa tiniqlashadi. Tuxumlardagi noksimon apparatning uzunligi 0,044 mm, diametri 0,021 mm ga teng bo'lgan yumaloq tanadan iborat, undan 0,023 mm uzunlikdagi ikkita shoxcha (o'simta) mavjud. Noksimon apparatdan tuxumning ichki qobig'iga yo'naltirilgan ipchalar tarqalgan. Tuxum rangi kulrang, biroz qoramtir tusga ega. Tuxumlar uzoq vaqt suvda saqlansa biroz tiniq tus oladi va ulardagi noksimon apparat ko'zga yaxshi tashlanadi. Parazitning yetilgan bo'g'inlaridan ajratib olingan tuxumlarda onkosfera harakatga kelaboshlaydi, suvda saqlanganda bunday holatni uzoq muddat kuzatish mumkin.

Moniezia benedeni. Strobilasining uzunligi 4-5 m gacha yetadi, juda enli oq va oq-sarg'ish tusga ega. Skoleksi bir oz yirikroq, eniga 0,9-1,2 mm gacha. So'rg'ichlarining diametri 0,40-0,50 mm. Bo'yinchasi qisqa -2,0-3,0 mm. Undan shakllanadigan yosh proglotidlar mayda hajmda, ular orasidagi chegara mikroskop ostida yaxshi seziladi,

keyinchalik ular asta-sekin eniga tezroq, bo'yiga esa sust o'saboshlaydi. Parazit tanasida yetilgan bo'g'inlar eni 22-25 mm ga teng, bo'yiga esa qisqa. Juda enli bo'lganligi tufayli strobilasi yupqalashgan.

Moniezia benedeni ning yetilgan tuxumlari to'rt yoki olti qirrali bo'ladi, ularning hajmi *M.expansa* tuxumlariga qaraganda yirik (0,7-0,9 mm), shunga ko'ra ulardagi onkosfera va noksimon apparat ham bir oz yirikroq hajmda bo'ladi.


Har ikkala tur moniyeziyalarning bo'g'inlarida ikki tomonga ochiladigan jinsiy teshiklar mavjud, ammo *M.expansa* ning bo'g'inlararo bezlari xalqasimon shaklga, *M.benedeni* niki esa lenta shakl. O'zbekiston sharoitida *M.expansa* tur qo'y va echkilarda *M.benedeni* qoramollarda keng tarqalgan.

M.autumnalia strobilasi *M.benedeni* nikiga nisbatan qalin, mustahkam va tiniq, oqish tusda. Bo'g'inlarining eni 6-8 mm dan oshmaydi. *M.benedeni* ning strobilasining barcha qismida bo'g'inlarning eni bo'yiga nisbatan 4-5 marta uzun bo'lsa, *M.autumnalia* ning esa germafrodit bo'g'inlarining eni bo'yiga nisbatan 1,5 marta uzun, yetilgan bo'g'inlarning bo'yi ham, ko'pincha, eniga nisbatan uzun (M.I.Kuznetsov, 1967).

M.alba strobilasining uzunligi 60 sm dan 250 sm gacha, skoleksi sharsimon yoki to'rtburchak shaklida, yirik (eniga 1,15-1,40 mm), bo'yinchasi bo'yiga 1,5 mm dan 5,3 mm gacha, eniga 0,6-0,9 mm. Bo'g'inlari qalin, uncha tiniq emas.

Yetilgan bo'g'inlarning eni 8 mm dan 14 mm gacha, bo'yi esa 2,0-6,5 mm, qalinligi 1,5 mm ga teng. Bo'g'inlararo bezlari bo'lmaydi, bo'g'inlarning chetki qismi tishchali (K.I.Skryabin, R.S.Shuls, 1937, V.I.Bondoreva, 1960). U ham uy hayvonlarida topilgan.

Yuqorida nomlari keltirilgan 4 turga oid moniyezioz qo'zg'atuvchilaridan tashqari Rossiya, Germaniya, Kanada, Qozog'iston va ayrim Markaziy Osiyo davlatlari hududida yovvoyi kavsh qaytaruvchi juft tuyoqli sut emizuvchilarda quyidagi 10 tur moniyeziyalarning uchrashi aniqlangan:




2- rasm *M.benedeni* ning enilgan bo'g'inlari va tuxumlari

M.rangiferina ning tana uzunligi 5-10 m, eni 12-18 mm, bo'g'inlar bo'yiga qisqa. Bo'g'inlararo bezlari noto'g'ri xalqa shakliga ega va ular bo'g'inlarning chetida 12-28 tadan joylashgan. Ayrim holatda ular to'plangan bo'ladi. Jinsiy apparati juft. Bachadoni yumaloq shaklda, tuxumlari noksimon apparatga ega (D.V.Kolmakov, 1938). Ushbu tur moniyeziya *M.expansa* ni esalatadi.


Thysaiezia giardi – oq-sarg'ich tUSDagi sestoda bo'lib, uzunligi 4,3 m, eni esa 8,7 mm ga teng. Parazit skoleksi qurollanmagan bo'lib, to'rtta muskulli so'rg'ichi bor, germafrodit bo'g'inida jinsiy bezlar bir komplektli va jinsiy teshik bo'g'inning ikki yon tomonidan noto'g'ri almashib keladi, bo'g'inlararo bez yo'q, bachadoni uzun naysimon shakldi bo'lib, kuchli rivojlanganida paruter – bachadon oldi organini hosil qiladi, etilgan bo'g'inda faqat bachadon qolgan bo'lib, parazit tuxumlari bilan to'lgan. Parazit tuxumlari 5-15 ta bo'lib pillasimon qobiqlarqa o'ralgan bo'ladi. Tuxumlari noksimon apparatga o'ralmagan.





3-rasm. Thysaniezia giardi ning 2 m 65 sm lik strobilasi. (etilgan).




4-rasm. Thysaniezia giardi ning skoleksi va undan so'ngi 5 sm li bo'yinchasi.



5- rasm. Thysaniezia giardi ning skoleksdan so'ngi 2 sm masofadagi bo'g'inlashmagan bo'yinchasi.



6- 7 rasmlar. Thysaniezia giardi ning skoleksdan 15 sm masofadagi bo'g'inlashmagan qismi.



8- rasm. monezioaning biologiyasi

Ichak sestodoz qo'zg'atuvchilarining biologiyasi. Moniyeziyalar ikki xo'jayin ishtirokida rivojlanuvchi biogelmintlardir. Ularning oraliq xo'jayinlari – mayda hajmli fitofag va koprofag hisoblanuvchi, tuproqdagi turli chirindilar, shu jumladan hayvon tezaklari bilan ham oziqlanuvchi bo'g'im oyoqlilar – oribatid (tuproq) kanalaridir.

Definitiv xo'jayinlari – xonaki va yovvoyi kavsh qaytaruvchi juft tuyoqli sutemizuvchilar.

Tadqiqotchilarning ma'lumotiga ko'ra oribatid kanalari oziqalanish jarayonida moniyeziyalar bilan zararlangan hayvonlarning tezaklaridagi parazit tuxumlarini yutadi. Kana organizmida moniyeziya tuxumidan chiqqan onkosfera (lichinka) uning qorin bo'shlig'iga tushadi, unda rivojlanib definitiv xo'jayin uchun yuqumli bo'lgan sistitserkoidga aylanadi. Moniyeziyalarning asosiy xo'jayinlari bunday sistitserkoidli kanalarni o't va tuproq bilan birga iste'mol qilish natijasida zararlanadi. Ularning ichagida kana tanasi erigach undan ajralgan lichinka so'rg'ichlari yordamida ichak devoriga yopishib lenta shaklida o'saboshlaydi. Har bir sutkada o'rtacha 8 sm ga o'sib, 38-40 kunda ulardan voyaga yetgan *M.expansa* yoki 42-49 kunda *M.benedeni* rivojlanadi.

Rossiya sharoitida M.I.Kuznetsov (1965) har ikkala turga oid moniyeziyalarning invazion lichinkalari-sistitserkoidlarni oribatid kanalarida 16-20 °C da yoz va kuzda 90 kunda, aynan shu xil haroratda qishda 95-114 kunda yetilishini aniqlagan.

O‘zbekiston sharoitida S.A.Nazarova (1967)ning ma’lumotiga ko‘ra bir xil haroratda (23 °C) moniyeziyalarning sistitserkoidlarini 85-98 kunda tuproq kanalarida invazion holga kelishi, bunday kanalarni esa qo‘zilar iste’mol qilganda M.expansa ni 39 kunda, M.benedeni ni esa 54 kunda voyaga yetishi, M.expansa ni 87 kun, M.benedeni ni 107 kun definitiv xo‘jayin organizmida yashashi aniqlangan. Sun’iy yo‘l bilan zararlantirilgan 9 tur oribatid kanalarida har ikkala tur moniyeziyalarning sistitserkoidlari rivojlangan, boshqa bir tuproq kanasida faqat M.benedeni ning lichinkasining rivojlanishi kuzatilgan.

Sh.A.Azimov (1974) ma’lumoti bo‘yicha O‘zbekiston sharoitida M.expansa ning oraliq xo‘jayini 12 tur, M.benedeni niki esa 13 tur oribatid kanalaridir.


Thysaiezia giardi – Parazit biogelmint, asosiy xo‘jayinlari qo‘y, echki, qoramol va kamroq boshqa turdagi kavshovchi hayvonlar, oraliq xo‘jayini esa – oribatid kanalar. Prepatent rivojlanish muddati 1,5-2 oy, parazitlik qilish davri esa – 5-6 oy. Invazion lichinkasi sistitserkoid.

Ichak sestodozlarning epizootologiyasi. Moniyeziozga chalinish yaylov sharoitida ro‘y beradi. Ayrim holatda nam havoda o‘rib olingan yo‘ng‘ichqa yoki boshqa yashil o‘simliklarni uy hayvonlariga yedirish ham ularni qisman moniyeziyalar bilan zararlanishiga olib keladi.

Moniyeziyalarning oraliq xo‘jayinlari – oribatid kanalar O‘zbekiston hududining barcha iqlim-geografik mintaqalari – sug‘oriladigan tekislik, tog‘oldi-tog‘ va cho‘l-yaylov biotsenozlarida keng tarqalgan. Shunga ko‘ra moniyezioz hayvonlar saqlanadigan barcha zonalarini qamrab olgan. Moniyezioz shuningdek fermer, shaxsiy yordamchi va dehqon xo‘jaliklari yer maydonlarida doimiy yoki vaqtincha saqlanadigan yirik va mayda shoxli hayvonlar orasida ham ko‘plab uchraydi.

Samarqand viloyati sharoitida bizlar tomonimizdan qoramollarda topilgan ichak sestodlarining tarqalishi o'rganish maqsadida jami 348 bosh qoramollarni to'liq gelmintologik yorib ko'rish usuli bilan tekshirganimizda, shundan 78 boshi qoramollar ichak sestodozlar bilan zararlangan invaziya ekstensivligi 22,4 % ni tashkil etdi.

Ularning 78 boshining ichaklarida anaplosefalitlar topildi. Shulardan *Moniezia expansa* 2 bosh qoramolda uchratdik ushbu holat tadqiqotlarmizdagi zararlangan qoramollarga nisbatan 2,56 % ni tashkil qildi. *Thysaniezia giardi* bilan zararlanish 23 boshda kuzatildi invaziya ekstensivligi 29,49 % ni tashkil qildi, *Moniezia benedeni* esa eng yuqori darajada zararlanish kuzatildi yani 53 boshda invaziya ekstensivligi 67,95 % ni tashkil etdi. Bizning tadqiqotlarmizda qoramollarda boshqa anaplosefalitlar topilmadi.



9-rasm. Qoramollarda uchragan ichak sestodozlarning ulushi

Natijada ularning orasida quyidagi anoplotsefalyatozlar – moniezioz va tizaniezioz qo'zg'atuvchilarining parazitlik qilishi aniqlandi.

Ular gelmintlar sistematikasida quyidagicha joylashgan.

Tip – *Plathelminthes* Schneider, 1873

Sinf- *Cestoda* Rudolphi, 1808

K/sinf- *Eucestoda* Southwell, 1930

Turkum- *Cyclophyllidea* Beneden in Braun, 1900

K/turkum- *Anoplocephalata* Skrjabin, 1933

Oila- *Anoplocephalidae* Chloodkowsky, 1902

Avlod-*Moniezia* Blanchard, 1891

Moniezia expansa (Rudolphi, 1810)

Moniezia benedeni (Moniez, 1879)

Oila- *Avitellinidae* Spassky, 1950

Avlod –*Thysaniezia* Skrjabin, 1926


Thysaniezia giardi (Moniez, 1879)

Barcha topilgan qoramollar ichak sestodi 135 nusxa topildi, *Moniezia autumnalia* *Moniezia alba* *Avitelina centripunctata* topilmadi.

Lekin ushbu sestodlarning morfologik jihatlarini e'tiborga olsak, *M.benedeni* ning o'choqlari *M.expansa* nikiga qaraganda xavfli, chunki ushbu tur monieziozning strobilasi *M expansa* nikiga qaraganda juda enli bo'ladi (22-24 mm gacha) va shu tufayli qo'zilarining ichagini tezda to'sib qo'yadi.

Samarqand viloyatida qoramollar ichak sestodlarning mavsumiy dinamikasi. Ichak sestodozlari mavsumiy kasallik emas, chunki uni yil bo'yi kuzatish mumkin. Oribatid kanallari yilning namgarchilik yuqori va tuproq harorati yuqori bo'lgan davrda o'ta faollashadi. Shunga ko'ra moniyeziya sistitserkoidlari bilan zararlangan kanalar hayvonlar dala sharoitida oziqlanganda ular tomonidan iste'mol qilinadi. Shu sababli, tadqiqotlarimizga ko'ra, moniyezioz bahor va kuzda avjiga chiqadi. Yoz faslida u birmuncha kamayadi, iliq qish paytlari ham bunday holat kuzatilib turiladi. Tadqiqotlarimizga ko'ra yer qor bilan qoplangan paytda quyosh ta'sirida u erigan joylarda (yashil o'simlik o'ngan yerlarda) ham moniyeziozga chalinishni kuzatish mumkin. Kuzning oxiri, qishning boshlanishi iliq havo va yuqori namlik bilan o'tsa, ildizi nozik bo'lgan yashil maysalar bilan yaylov usti qoplanadi. Bunday paytda yashil maysalar ildizi bilan tuproq aralash oribatid kanallari hayvonlar organizmiga ko'plab tushadi va moniyeziozga chalinish kuchayadi. Qahroton qish paytida, yer ustki

qatlami muzlaganda moniyeziozga chalinish to'xtaydi. Yoz paytida cho'l mintaqasida bir yillik yashil o'simliklar qurib qoladi, ammo ularning tirik ildizi atrofidagi tuproqda namlik biroz saqlanib turadi.



**10- rasm. Qoramollarda anoplotsefalyatozlar mavsumiy dinamikasi
II va OE (TGYo) usulda**

Samarqand viloyatidagi qoramollarda anoplosefalyatozlarning mavsumiy tarqalishini aniqlash maqsadida to'liq gelmintologik yorish (TGYo) usullari yordamida tekshiruvlar o'tkazildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bahor faslida tekshirilgan 65 bosh qoramoldan 22 tasi (33,8%) zararlangan. Yoz faslida 54 bosh qoramoldan 9 tasi (16,7%), kuz faslida 46 bosh qoramoldan 19 tasi (41,3%), qish faslida esa 183 bosh qoramoldan 28 tasi (15,3%) anoplosefalyatoz bilan zararlanganligi aniqlangan. Umumiy hisobda, tekshiruv o'tkazilgan 348 bosh qoramoldan 78 tasi (22,4%) kasallangan.


Natijalar shuni ko'rsatadiki, anoplosefalyatozlarning zararlanish foizi mavsumga qarab sezilarli farq qiladi: eng yuqori zararlanish kuz faslida, shuningdek bahorda kuzatilgan, yoz va qish fasllarida esa foiz nisbatan past bo'lgan. Ushbu ma'lumotlar mavsumiy monitoringni amalga oshirish va qoramollarni parazitlar kasalliklardan oldini olish chora-tadbirlarini faslga mos ravishda rejalashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Samarqand viloyatida qoramollar ichak sestodozlari turli hududlarda tarqalishi. Samarqand viloyatida tadqiqot o'tkazilgan tumanlarning tog'-tog'oldi hududida joylashgan barcha tumanlarda *M.benedeni*, sestodining tuxumlari 4 nusxadan 15 nusxagacha topildi. Manieziyalardan *M.benedeni* turi bilan zararlanishi har bir tumanda kuzatildi. Nurobod tumanida qoramollar ichak sestodlari bilan ekstenszararlanganligi 23,9 % (16 bosh), Qo'shrobd tumanida 20,0 % (6 bosh), Urgut tumani xo'jaliklarda 18,4 % (9 bosh) ni tashkil etdi. Tog'-tog'oldi hududlarida 146 bosh qoramol tekashrilgan bo'lsa shundan 21,2 % (31 bosh) zaralanganligi aniqlandi. Ushbu raqamlarning ko'rsatgichi bo'yicha viloyatning tog'-tog'oldi hududlarida *M.benedeni* *M.expansaga* nisbatan ko'proq tarqalganligi qayd qilindi.

Ushbu viloyatning sug'oriladigan hududlardan jami 133 bosh qoramol gelmintokoprologik Tekshirishdan o'tqazilganda 19,55 % (26 boshi) ichak sestodozlarga chalinganligi aniqlandi. Shuningdek Tayloq tumanida 12 bosh (23,1%), Oqdaryo tumanida 9 bosh (23,1%), Payariq tumanida 5 bosh (11,9 %) ni tashkil qildi.

Ushbu viloyatning cho'l yaylov hududlarda saqlanadigan jami 41 bosh qoramol ichak sestodlarga tekshrilganda 7 boshi (17,7 %) zararlanganligi aniqlandi. Bunga ko'ra Qo'shrobd tumanida 4 bosh (17,4 %), Nurobod tumanida esa 3 boshi (16,7 %) ni tashkil qildi. Shunday qilib viloyatning cho'l yaylov hududlarda *M.benedeni* va *T.giardi* uchradi, *M. expansa* ni uchratmadik.

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra, gelmintoovoskopiya usuli bilan viloyatning har uchala geografik – iqlim mintaqasida tekshirilgan 320 bosh turli yoshdagi qoramollarning tekshrildi. Jumladan, tog' - tog'oldi biogeotsenozlaridagi xo'jaliklarda tekshrilgan 146 bosh qoramollarning 31 boshni, (21,2 foizini), sug'oriladigan biogeotsenozlarda tekshrilgan 133 bosh qoramollarning 26 boshi, (19,55 foizi), cho'l yaylov hududlardan esa 41 bosh qoramollardan 7 boshi (17,1 foizi) qoramollar ichak sestodozlari qo'zg'atuvchilari bilan zararlanganligi aniqlandi.



11- rasm. Samarqand viloyatida qoramollar ichak sestodozlari turli hududlarda tarqalishi

Ushbu ma'lumotlar biogeotsenozlarga nisbatan qoramollar orasida ichak sestodozlarning tog'oldi -tog' hududlarda tarqalish jixatdan birinchi o'rinda, sug'oriladigan mintaqadagi ikkinchi o'rinda va cho'l yaylov hududlardan esa uchunchi o'rinda tarqalganligini ko'rsatib turibdi. Bunday epizootologik holatni har bir mintaq, ya'ni biogeotsenozlarning geografik iqlim xususiyatlari, ob-havosi, gidrologik rejimi, tuproq va kasallik qo'zg'atuvchilarning ekologiyasi va boshqa bir qator biogeotsenotik xususiyatlari, qolaversa ulardagi mavjud chorvachilikni yuritish usullari bilan bog'liq deb izoxlash mumkin.


Ichak sestodozlarning klinik belgilari. Ichak sestodozlarining klinik belgilarining ifodalanishi hayvonlar yoshiga, qo'zg'atuvchilarning turiga, soniga bog'liq va u barcha holatlarda, ichakning hajmi tor bo'lganligi sababli buzoqlarda og'ir kechadi. Katta yoshdagi qoramollar unga kam chalinadi va ularda kasallik yengil kechadi.

Moniyeziozda uning qo'zg'atuvchilari bilan zararlanishdan boshlab birinchi klinik belgilar yuzaga kelaboshlaguncha kasallik yashirin (latentli) kechadi. Uning dastlabki klinik belgilari hayvonning oriqlanib boshlashidan, harakatini susayishidan, tezagini yumshashidan boshlanadi. Zararlanishning 25-30 kunligidan boshlab, ya'ni moniyeziyalar (*M.expansa*, *M.benedeni*) tanasining tobora o'zayib borishi va voyaga yetishi arafasida qo'zilarida klinik belgilar aniq ko'zga

tashlanaboshlaydi: dastlab ozg'inlanish, apatiya, suruvdan orqada qolish, tez-tez yotib turishi, axlatini suyuqlashib ketishi kuzatiladi. Keyinchalik ichak bo'shlig'i oziqa massasi va parazitlar bilan to'lib, sestodlarni tugun hosil qilib yig'ilib qolishi natijasida ichakda havo to'plana boshlaydi, bu esa qorin bo'shlig'ini tarang holga olib keladi, natijada hayvon ichagida kuchli og'riq paydo bo'ladi. Bunday holatda yosh hayvonlarning tinchligi buziladi, buzoqlar turli tomonga aylanma harakat qilaboshlaydi, oyoqlari bilan yerni tepaboshlaydi, boshini yerga, turli predmetlarga uradi, yoki qorin tomonga bukadi, tez-tez yotib qaytadan turaboshlaydi, yerni tishlaydi.

Moniyeziozni nerv shaklida kechishi uning qo'zg'atuvchilarining ichakga ajratgan keraksiz moddalari bilan zaharlanish natijasida markaziy nerv tizimi faoliyatining buzilishi bilan ham bog'liq.

Patogenezi. Ichak sestodozlari xo'jayin organizmiga mexanik, toksik va allergik ta'sir ko'rsatadi.




12-rasm. (A) Ichakda turli o'lchamdagi tugunlar. 13-rasm (B) Aniqlangan gemorragik o'choqlar

Ularning mexanik ta'siri ichak devorlarini qitqlashi oqibatida ularni birmuncha yallig'lanishiga, ichak harakatini buzilishiga olib keladi. Ular xo'jayin ichagidagi tayyor oziqaning bir qismini gavda yuzasi bilan osmotik yo'l bilan shimib oladi, o'zlarida hosil bo'lgan keraksiz moddalarni ichak bo'shlig'iga ajratib hayvon organizmini ular

bilan zaharlaydi, uning oqibatida talaygina organlarning, birinchi navbatda, markaziy nerv tizimining faoliyati buziladi, qon tarkibida o'zgarishlar yuzaga keladi, hayvonlarning boshqa kasalliklarga chidamliligi, himoya reaksiyasi pasayadi.

Patologoanatomik o'zgarishlar. Gavdaning qorin va ko'krak bo'shliqlarida ekssudat to'planadi, shilliq pardalar oqaradi. Ichak tutqichlarining limfa bezlarida, ichak shilliq pardalarida, buyrak va taloqda proliferativ-degenerativ patologik jarayonlar, ichak shilliq pardalarida, bosh miyada qon qo'yilishlar, infiltratsiya, ingichka ichak bo'shlig'ida moniyeziyalar kuzatiladi.



14- 15 rasmlar. Ichak shilliq qavatlarda qon qo'yilishlar

Diagnostikasi va differensial diagnostikasi. Ichak sestodozlarga hayvon tirikligida gelmintoskopiya, gelmintoovoskopiya va allergik usullarda diagnoz qo'yiladi. Gelmintoskopiya usuli hayvon tezagida moniyeziyalar tanasidan uzilib tushgach bo'g'inlarni topishga qaratilgan. Uning uchun tekshiriladigan qo'y, qo'zining anal teshigidan tushadigan tezaklarni yig'ish uchun unga maxsus xalta osib qo'yiladi (erkaklariga). Bir sutkadan so'ng xaltacha olinib, unda yig'ilgan tezaklar sestodning bo'g'inlariga yoki tana qismlariga tekshiriladi. Xaltacha bo'lmasa tekshiriladigan hayvonlar maxsus tozalangan joyda saqlanadi, 10-12 soat davomida ulardan tushgan tezaklar moniyeziya bo'g'inlariga tekshiriladi.

Davolash. Ushbu maqsadda juda ko‘plab antgelmintiklar sinab ko‘rilgan va amaliyotga tavsiya etilgan. Ularga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Mis kuporosining suvdagi 2 foizli eritmasi buzoqlarga 1,5-2 oyligida 21-25 ml, 2-3 oyligida 30 ml gacha, 3-4 oyligida 35 ml gacha, 4-5 oyligida 40 ml gacha, 5-6 oyligida 45 ml gacha, 6-7 oyligida 50 ml gacha, 7-8 oyligida 60 ml gacha, 8-10 oyligida 80 ml gacha, katta yoshdagi qo‘ylarga 100 ml gacha qo‘llaniladi. Mis kuporosi distillangan yoki qaynatilgan (sovutilgan) suvda shisha idishda eritiladi. O‘zbekiston hududida moniyeziozga qarshi ushbu preparatlardan tashqari margimushli qalay, panakur (fenbendazol), rintal, yomezan kabi preparatlardan ham foydalanilgan.

Hozirgi paytda O‘zbekiston hududiga xususiy veterinariya dorixonalari orqali moniyezioz va boshqa ichak sestodozlariga qarshi qo‘llaniladigan turli firmalarda ishlab chiqilgan dori vositalari keltirilmoqda. Ularga alben, albendazol (2,5 va 10 foizli), albazen (2,5 va 10 foizli), brontel plyus (1 ml tarkibida 50 mg klozantel, 50 mg prazikvantel), bentel-900 (albendazol prazikvantel), alben-praz (1 ml tarkibida 50 mg albendazol, 50 mg prazikvantel), iver-praz (1 ml tarkibida 2 mg ivermektin 50 mg prazikvantel), monezol (1 ml tarkibida 2 mg ivermektin, 40 mg prazikvantel) va boshqalar kiradi.

Nurobod tumani “Xasan, Zuhra tog‘ chorvasi” fermer xo‘jaligida olib borilgan tajribalarda tabiiy zararlangan 16 bosh qoramol olinib, 4 guruhga ajratildi. Va qoramollar ichak sestodozlarga qarshi uchta antgelmintik preparatni sinovdan o‘tkazdik. Tajribalar to‘rtta guruhda anologlar qoidalari asosida o‘tkazildi. Uchta tajriba bitta nazorat guruhi qilib shakllantirildi.

Tajriba guruhlarida 5 boshdan, gelmintokoprologik tekshirishlar natijalarga asoslanib, ichak sestodozlari bilan nisbatan kuchli zararlangan qoramollar tanlab olindi.

Qoramollarning ichak sestodozlarga qarshi qo'llanilgan antgelmintik preparatlarning samaradorligi

№	Antgelmint preparatlar, dozalari, qo'llash usul	Guruhdagi qoramollar soni (bosh)	Davolashdan oldin topilgan tuxumlar soni	Davolashdan 14 kun keyin		Davolash samaradorligi %	
				Parazit topilgan hayvon bosh soni	tuxum lar soni	ekstensamara	intensamara
I	Iverkoprazik og'iz orqali 20 kg tirik massaga 1 ml	5	52	-	-	100,0	100,0
II	Meradok teri ostiga 50 kg tirik massasiga 1 ml	5	43	1	8	80	81,3
III	Rikazol teri ostiga 25 kg tirik massaga 1 ml	5	44	1	5	80	88,6
IV	Nazorat guruhi	5	41	5	46	0	0

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, I tajriba guruhi qoramollarga Iverkoprazik og'iz orqali 20 kg tirik vazinga 1 ml orqali yuborildi. Davolashdan oldin tajriba guruhidagi 5 bosh qoramollarning tezak namunalari 52 nusxa parazit tuxumlari aniqlangan bo'lsa, preparat yuborilganidan 14 kun o'tgach ushbu ko'rsatkich nolga teng bo'ldi. Ichak sestodozlariga qarshi juda yuqori samaradorlik ko'rsatdi. Natijada Iverkoprazik preparatining ekstensiv va intensiv samaradorligi 100 % ni tashkil etdi.

II tajriba guruhi qoramollarga Meradok preparat teri ostiga 50 kg tirik massasiga 1 ml bir marotaba qo'llanildi ushbu tajriba guruhida davolashdan oldin 5 bosh qoramollarning tezak namunalari 43 nusxa parazit tuxumlari tashkil qilgan bo'lsa, davolashdan 14 kun keyin esa ushbu ko'rsatkich 1 bosh qoramol tezak namunasidan 8 nusxa parazit

tuxumlari topildi. Bu holat Meradok preparatining ichak sestodozlariga qarshi 80 % ekstensiv va 81,3 intensiv samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

III tajriba guruhida Rikazol teri ostiga 25 kg tirik massaga 1 ml lorqali qo'llanildi. Ushbu guruhda davolashdan oldin parazit tuxumlari 5 bosh qoramollarning tezak namunalaridan 44 nusxa parazit tuxumlari topilgan bo'lsa, davolashdan keyin 14 kundan so'ng 1 bosh qoramol tezak namunasidan 5 nusxa tuxumlari topildi. Shunga qaramay, davolashdan keyin ham hayvonlarda ichak sestodozlariga qarshi 80% ekstensiv va intensiv samaradorligi 88,6 % darajasida baholandi.

Nazorat guruhida esa antgelmintik vositalar qo'llanilmagan bo'lib, 5 bosh qoramollarda davolashdan oldin parazit tuxumlarining 41 nusxa topilgan bo'lsa. 14 kunlik kuzatuvdan so'ng ushbu ko'rsatkich 44 nusxagacha oshgani aniqlanib, ichak sestodozlarining tabiiy sharoitda davom etishi va invaziya kuchayishini tasdiqladi.

Qo'llangan antgelmintik preparatlar ichida iverkopraziq eritmasi eng samarali preparat ekanligi aniqlandi.

Ichak sestodozlarga chalingan qoramollarni antgelmintik preparatlar orqali davolashda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim. Tekshiruv natijalari asosida har bir hayvonga individual yondashuv tamoyili qo'llanilib, qoramollar hamda qo'y-echkilar uchun antgelmintik preparatlar ularning tana vazniga mos ravishda aniq hisob-kitob asosida belgilanadi.

Har bir hayvonning fiziologik holati, yoshi, mahsuldorlik darajasi va invaziya intensivligi alohida baholanib, davolash rejasi shunga muvofiq tuziladi. Ayniqsa, yosh va zaif hayvonlarda preparatlarning nojo'ya ta'sirlarini oldini olish maqsadida ehtiyot choralariga alohida e'tibor qaratiladi.

Davolash tadbirlari kompleks yondashuv asosida amalga oshirilib, faqat dori vositalarini qo'llash bilan cheklanib qolmaydi. Bunda chorvachilik xo'jaliklarida sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya etish, yaylovlarni to'g'ri almashtirib foydalanish, hayvonlarni toza ichimlik

suvi va sifatli ozuqa bilan ta'minlash kabi profilaktik choralar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, antigelmintik preparatlarni qo'llashdan oldin va keyin hayvonlarda laborator tekshiruvlar o'tkazilib, davolash samaradorligi monitoring qilinadi. Olingan natijalar asosida zarur hollarda takroriy davolash ishlari rejalashtiriladi. Bu esa gelmintozlarning qayta tarqalishini oldini olish va epizootik holatni barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, individual dozani to'g'ri belgilash va kompleks profilaktika choralarini amalga oshirish orqali chorva hayvonlarida gelmintoz kasalliklarining tarqalish darajasi sezilarli darajada kamayadi hamda ularning mahsuldorligi oshadi. Natijada xo'jalikning iqtisodiy samaradorligi yaxshilanadi va chorvachilik mahsulotlarining sifati yuqori darajada ta'minlanadi.

Oldini olish choralari. Buning uchun qoramol va boshqa kavsh qaytaruvchi hayvonlarni bir tomondan yaylov sharoitida ularni moniyezioz qo'zg'atuvchilari bilan zararlanishdan, sestodlarning oraliq xo'jayinlari – oribatid kanalarini parazitlarning onkosferali tuxumlari bilan invazyalanishdan muhofaza qilish talab qilinadi. Birinchi tadbir nosog'lom xo'jaliklarda qoramol, qo'y-qo'zilarni qish mavsumidan boshlab preimaginalli yoki davolashga qaratilgan gelmintsizlantirishga asoslanadi. Ushbu maqsadda yuqorida nomlari keltirilgan preparatlardan foydalaniladi. Ushbu chora-tadbirlar yaylovdagi tuproq (oribatid) kanalarini ham zararlanishini, bu bilan invazyalarning kuchayishini oldini oladi.

Davolash va profilaktik degelmintizatsiya moniyeziozning yil bo'yi kuzatilishini, uni bahor va kuz mavsumlarida kuchayishini e'tiborga olgan holda birinchi marta qishda, ikki marta yaylov sharoitda ilk bor buzoqlarda sestodlarning yetilgan bo'g'inlarini uzilib tusha boshlashidanoq o'tkaziladi. Ushbu holatda gijjasizlantirilgan hayvonlarni ikki sutka davomida molxonalarda ushlanadi, ular ajratgan tezaklarni zudlik bilan biotermik usulda zararlantirishni talab qilinadi.

Davolash yoki profilaktik gijjasizlantirishni avgust-sentyabrda va noyabr-dekabrda qayta o'tkazilishi (hayvonlarni zararlanish ko'rsatkichlariga ko'ra) ham maqsadlidir.

Xulosa. Qoramollar ichak sestodozlarga tashxis qo'yishda avvalo hududlarning gelmintofaunistik xususiyatlarini, kasallikning klinik belgilari, gelmintokoprologik tekshirishlar va hayvonni to'liq va noto'liq yorib ko'rish natijalari, anaplosefalitlarningning o'ziga xos taraqqiyoti oraliq xo'jayini oribatid tuproq kanalarining tarqalishi, yil mavsumlari, suruvning tarkibi shuningdek, qo'zg'atuvchining biologiyasiga ta'sir etuvchi boshqa zarur gidrogeologik omillar (yaylovning holati, yog'ingarchilik va boshqalar)ni e'tiborga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Qoramollar ichak sestodozlarga oldini olishda belgilangan tartib va miqdorlarda bahor va kuz oylarida yiliga ikki marta, ya'ni sug'oriladigan hududlarda may-oktyabr, tog'-tog'oldi hududlarida iyun-noyabr cho'l yaylov hududlarida aprel-oktyabr oylarida Iverkoprazik, Rikazol, Meradok preparatlarini qo'llashga asoslangan rejali gijjasizlantirish tadbirlarini o'tkazish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Azimov DJ. A., Yatusovich A. I., Yunusov X. B va boshqalar “Parazitologiya va invazion kasalliklar” Darslik Toshkent - 2024 “Fan ziyosi” 141 bet
2. Daminov.A.S., Istamkulova M., Keldiyorov X. Achilla L. Turkumiga mansub ayrim o‘simliklar turlarining antigelmint faolligi va ularni qo‘ylar monieziozni davolash uchun qo‘llash bo‘yicha. TAVSIYANOMA// Samarqand 2025-yil. 42 bet.
3. G‘oyipova M.E. Zarafshon bvodiysi yirik shoxli (Bos Taurus dom) ning gelmintlari: faunasi, tarqalishi va ekologiyasi. // PhD diss Samarqand -2019 yil
4. Salomov B.S., Qurbanov Sh.X., Tayloqov I.T va boshqalar. “Mayda shoxli hayvonlar monieziozining diagnostikasi va unga qarshi kurash choralari” // Tavsiyanoma 2018 yil. -4 bet
5. Taylakov T.I. Echkilar moniyeziozini davolashda antigelmintikli mineral tuzli yalamani qo‘llash. // Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish istiqbollari: zamonaviy amaliyot va innavotsion texnologiyalar. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to‘plami.Samarqand, 2020. -B. 236-238.
6. Taylokov T.I., Sh X.Muxammadiyeva., Kuliyeu B.A Qoramollar monieziozining patomorfologiyasi. Veterinariya meditsinasi jurnali №10 son Toshkent-2024, 22-24 bet.
7. Tayloqav T.I. Salimov B.S. Qurbonov SH. Yirik va mayda shoxli hayvonlarning ichak sestodozlarini o‘rganishning ahamiyati. // Gelmintologiyaning dolzarb muammolari. Termiz. 2014 – 48 – 51 betlar
8. Uroqov K.X, DaminovA.S., Yunusov X.B. Qoramollar gelmintozlari // Monografiya. Samarqand -2024 yil 143 bet.
9. Yunusov X.B.,Muxammadiyeva Sh.X, Taylakov T.I Qoramollarning ichak sestodozlarini tarqalishi va ularga qarshi antigelmintiklarning sinov natijalari. Veterinariya meditsinasi jurnali №4 son Toshkent-2026 yil.

10. Азимов Ш.А. Фасциолезы и аноплоцефалитозы овец и крупного рогатого скота. Ташкент «Фан», 1974. -214 с.
11. Белова Е.Е. Эколого-эпизоотологические особенности аноплоцефалитозов животных в Среднем Поволжье и эффективность новых антигельминтиков: дис. ... докт. вет. наук. — Москва, 2013. — 320 с.
12. Истамкулова М., Даминов А.С. Келдиёров Х.О, Душанова Г.А, Влияние фитопрепаратов на основе *Achillea millefolium* L. и *Achillea Arabica* Kotschy на фагоцитарную активность и показатели крови у овец, зараженных мониезиозом. // Ж. Биологические обозрение №4 ,2025.С. 13-21
13. Кузнецов В.М. Мониезиозы жвачных животных в Московской области: эпизоотология, патогенез, лечение и профилактика. //Автореф.канд.дисс... М. 2004. – 17 с.
14. Кузнецов М.И. Аноплоцефалитозы жвачных животных. //Автореф. докт. дисс..., Москва, 1967. -45 с.
15. Мардиев М. Эпизоотология аноплоцефалитозов жвачных животных на юге Узбекистана и опыт борьбы с ними. //Дисс.канд.вет.наук, Самарканд, 1967. -136 с.
16. Мухаммадиева, Ш. Х. "Распространение кишечных цестодоз крупного рогатого скота в горных и предгорных районах Самаркандской области." (2024).
17. Назарова С.А. Орибатида пустынно-пастбищной зоны Узбекистана и их значение в эпизоотологии мониезиоза овец. //Автореф канд.дисс..., Самарканд, 1967, -16 с.
18. Пляко А.В. Мониезиоз крупного рогатого скота в хозяйствах Северо-Запада России: эпизоотология, клиническая картина, ущерб, терапия и профилактика: дис. ... канд. вет. наук. — Санкт-Петербург, 2006. – 145 с

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
Qoramollar ichak sestodoz haqida umuniy ma'lumot.....	5
Qo'zg'atuvchilarning anatomo-morfologiyasi.....	6
Ichak sestodoz qo'zg'atuvchilarining biologiyasi.....	11
Ichak sestodozlarning epizootologiyasi.....	12
Samarqand viloyatida qoramollar ichak sestodlarning mavsumiy dinamikasi.....	14
Samarqand viloyatida qoramollar ichak sestodozlari turli hududlarda tarqalishi.....	16
Ichak sestodozlarning klinik belgilari.....	17
Patogenezi.....	18
Patologoanatomik o'zgarishlar.....	19
Diagnostikasi va differensial diagnostikasi.....	19
Davolash.....	20
Oldini olish choralari.....	23
Xulosa.....	24

**QORAMOLLARNING ICHAK SESTODOZLARINI DAVOLASH VA
OLDINI OLISH CHORA-TADBIRLARI BO‘YICHA**

TAVSIYANOMA

**Ushbu tavsiyanoma Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti b.f.d. professor
X.B. Yunusov., v.f.d. professor v.b. T.I. Taylakov mustaqil
izlanuvchisi Sh.X.Muxammadiyevalar tomonidan tayyorlangan.**

Qog‘oz bichimi 60x84 ^{1/16}.
Times New Roman garniturası.
Shartli hisob tabog‘i – 1,75.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 06/3

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nashr matbaa markazida chop etildi.
Samarqand sh., Mirzo Ulug‘bek k., 77
Tel. 93 359 70 98